

**YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY
XAVOTIRLAR VA ULARNI KORREKSIYALASHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi,

University of Business and science Toshkent filiali PhD dotsent v.b.

asolat.nasrullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ularning ijtimoiy tasavvurlarida yuzaga keladigan xavotirlar, ijtimoiy fobiyalar va ularni korreksiyalash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, nikohga tayyorlikning psixologik komponentlari, gender farqlari, jinsiy hayotga munosabat hamda zamonaviy ijtimoiy stereotiplarning yoshlar ongiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning oilaviy hayotga nisbatan qarashlari murakkab ijtimoiy-psixologik omillar bilan belgilanadi va ularni to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy fobiya, nikohga tayyorlik, oilaviy qadriyatlar, gender farqlari, ijtimoiy tasavvurlar, yoshlar psixologiyasi.

Аннотация. В данной статье анализируются тревоги, социальные фобии и вопросы их коррекции, возникающие в их социальных представлениях в процессе подготовки молодежи к семейной жизни. Также изучаются психологические компоненты готовности к браку, гендерные различия, отношение к сексуальной жизни и влияние современных социальных стереотипов на сознание молодежи. Согласно результатам исследования, взгляды молодежи на семейную жизнь определяются сложными социально-психологическими факторами, и их правильное направление имеет большое значение.

Ключевые слова: социальная фобия, готовность к браку, семейные ценности, гендерные различия, социальные представления, психология молодежи.

Abstract. This article analyzes the anxieties, social phobias, and issues of their correction arising in the social perceptions of young people in the process of preparing them for family life. The psychological components of marriage readiness, gender differences, attitudes towards sexual life, and the influence of modern social stereotypes on the minds of young people are also studied. According to the research results, young people's views on family life are determined by complex socio-psychological factors, and their correct orientation is of great importance.

Keywords: social phobia, readiness for marriage, family values, gender differences, social perceptions, youth psychology.

Kirish. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi zamonaviy psixologiya va sotsiologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ularning ijtimoiy tasavvurlarida yuzaga keladigan xavotirlar va qo'rquvlarni o'rganish, bu xavotirlarni kamaytirish va korreksiya qilish masalalari muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammo XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab olimlar tomonidan faol o'rganila boshlagan bo'lib, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning nikohga bo'lgan munosabati, oilaviy hayot haqidagi qarashlari va shaxsiy qadriyatlari keskin o'zgarib bormoqda. Bu esa ularning psixologik tayyorgarligiga, ijtimoiy moslashuviga va oilaviy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy fobiya, ya'ni jamiyatda o'zini tutish, baholanish va

mas’uliyatdan qo‘rqish kabi holatlar yoshlarning nikohga kirishishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi ularning shaxsiy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va hayotga bo‘lgan qarashlari bilan chambarchas bog‘liq. Shaxsning ijtimoiy-psixologik munosabatlar tizimi uning turmush tarzini va hayotiy ustuvorliklarini belgilaydi. Shu sababli, nikohga tayyorlik faqatgina yosh yoki iqtisodiy omillar bilan emas, balki ichki psixologik holat bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot metadologiyasi. Nikoh motivlari yoshlarning oila qurishga bo‘lgan ehtiyojini ifodalaydi. Bu motivlar turlicha bo‘lishi mumkin. sevgi, ijtimoiy bosim, moddiy manfaat yoki yolg‘izlikdan qochish. Shu bilan birga, yoshlarning nikohga nisbatan ustanovkalari, ya’ni ichki ruhiy tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa ularning oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va e’tiqodlarida namoyon bo‘ladi. Yoshlar orasida ijtimoiy fobiyalar turli ko‘rinishlarda uchraydi. Jumladan. jamoat oldida nutq so‘zlashdan qo‘rqish, tanqid qilinishdan qo‘rqish, mas’uliyatdan qochish turmushdagi o‘zgarishlardan xavotirlanish.

Bu holatlar ayniqsa nikoh masalasida yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi. Chunki oila qurish inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biri bo‘lib, katta mas’uliyatni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ko‘pincha o‘zidan, kelajakdan va turmush sharoitidagi o‘zgarishlardan qo‘rqadilar. Bu esa ularda nikohga nisbatan ichki qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi. Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarida gender farqlari muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra. Qizlarda boshqalarning tajribasiga ko‘proq tayanish kuzatiladi. Ular atrofdagilarning salbiy tajribalarini ong ostida qabul qilib, o‘z hayotiga tatbiq etishga moyil bo‘ladilar. Bu esa ularda ortiqcha xavotir va qo‘rquvlarni keltirib chiqaradi. Yigitlarda esa aksincha, mustaqil fikrlash ustunroq bo‘ladi. Ular ko‘pincha boshqalarning fikriga kamroq e’tibor qaratib, o‘z qarashlarini asosiy deb biladilar. Bu holat ba’zan noto‘g‘ri tasavvurlarning oldini olsada, ayrim hollarda real muammolarni inkor etishga olib kelishi mumkin. Demak, gender xususiyatlarini inobatga olish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega

Yoshlarning jinsiy hayot haqidagi bilimlari va tasavvurlari hali to‘liq shakllanmaganligi ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Ko‘pincha bu bilimlar noto‘g‘ri manbalar yoki ijtimoiy stereotiplar asosida shakllanadi. Natijada. jinsiy munosabatlarga nisbatan noto‘g‘ri qarashlar paydo bo‘ladi, oilaviy hayotdagi yaqinlikning ahamiyati yetarlicha anglanmaydi, nikohdan keyingi moslashuv jarayoni qiyinlashadi. Shu sababli, ijtimoiy xavotirlarni kamaytirishda jinsiy tarbiya va to‘g‘ri axborot berish muhim vosita hisoblanadi. Bu orqali nikohdan tashqari munosabatlar xavfini ham kamaytirish mumkin.

Natijalar va muhokama. Yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligida muloqot qilish qobiliyati alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida muloqotga kirishish ehtiyoji yaxshi rivojlangan. Ular shaxslararo munosabatlarning ahamiyatini tushunadilar. Biroq ayrim hollarda.

- muloqotdagi to‘siqlar
- o‘z fikrini ifoda eta olmaslik
- konfliktlarni hal qila olmaslik

kabi muammolar yuzaga keladi. Shu bois, yoshlarni kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirish muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy stereotiplar yoshlarning ongiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan. “ideal oila” haqidagi noto‘g‘ri tasavvurlar, mukammallik talabining yuqoriligi, jamiyat bosimi kabi omillar yoshlarda o‘zini boshqalar bilan solishtirish, o‘ziga ishonchsizlik va qo‘rquvni kuchaytiradi. Natijada ular nikohga kirishishda ikkilanib qoladilar. Yoshlar orasida nikohga nisbatan xavotirlarni kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim.

1. Psixologik treninglar va maslahatlar tashkil etish
2. Oilaviy hayotga tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish
3. Jinsiy tarbiya va sog‘lom munosabatlar haqida to‘g‘ri ma‘lumot berish
4. Ijtimoiy stereotiplarni tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatish
5. Muloqot va konfliktologiya ko‘nikmalarini rivojlantirish

Gender farqlari, jinsiy hayotga oid tasavvurlar, ijtimoiy stereotiplar va shaxslararo munosabatlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yoshlarning kelajakdagi oila haqidagi tasavvurlarini to‘g‘ri shakllantirish, ularda ijobiy qadriyatlarni rivojlantirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash zarur. Shu sababli, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kompleks yondashuvni qo‘llash, ularning ijtimoiy xavotirlarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa kelajakda mustahkam va barqaror oilalar shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni murakkab va ko‘p omilli bo‘lib, unda ijtimoiy-psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy tasavvurlarida shakllanadigan xavotirlar va ijtimoiy fobiyalar ularning nikohga bo‘lgan munosabati hamda oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari yoshlar orasida nikohga nisbatan xavotirlarning asosiy manbalari sifatida shaxsiy noaniqlik, kelajakdan qo‘rquv, ijtimoiy stereotiplar ta‘siri hamda yetarli hayotiy tajribaning yo‘qligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, gender xususiyatlari ham bu jarayonda muhim o‘rin tutib, qizlarda ijtimoiy ta‘sirga beriluvchanlik, yigitlarda esa mustaqil qaror qabul qilishga moyillik ustun ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, yoshlarning jinsiy hayotga oid tasavvurlarining yetarlicha shakllanmaganligi, noto‘g‘ri

axborot manbalari va stereotiplar ta'siri natijasida oilaviy hayotga moslashuv jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligi asoslandi. Shuningdek, muloqot ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham oilaviy munosabatlarda muammolar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kompleks yondashuvni qo'llash zarur. Xususan, psixologik treninglar, ma'rifiy dasturlar, jinsiy tarbiya, ijtimoiy stereotiplarni tanqidiy anglashni rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish muhim yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi. Umuman olganda, yoshlarning ijtimoiy xavotirlarini o'z vaqtida aniqlash va samarali korreksiya qilish orqali ularning nikohga psixologik tayyorgarligini oshirish, sog'lom va barqaror oilalar shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bilolova Z.B. Turmush qurish yoshidagi yigit-qizlarni ota-onalikka tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari. Avtoreferat diss... ixtisoslik 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. Toshkent, TDPU. 2023. – 11 b.
2. Fayziyeva M.X. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Er-xotin misolida). Psixol. fan. nom. ... dis. 19.00.05. – T.. O'zMU, 2005. – 25 b.
3. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi. Psixol. fan. dok. ... dis. – Farg'ona. FarDU, 1994. – 324 b.
4. Lutfullayeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nom....dis. – T.. O'zMU, 2006.– 13-14 b.
5. Saidov A.I. Oilada yoshlarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Avtoreferat diss... ixtisoslik 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. Toshkent, TDPU. 2022. – 17 b.